XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 14-oktabr VII-37-123-5-78-K/26 Zarafshon shahar

Bahor mahallasi hududidagi nomsiz ko‘chani nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2026-yil 16-sentabrdagi 05/08-11332-sonli xati, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2026-yil 9-sentabrdagi 05-19-10768-sonli ekspert xulosasi va yig‘ilish bayoni, Navoiy viloyati hokimligining 2026-yil 18-sentabrdagi 16-16/880-sonli xati, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining 2026-yil 23-sentabrdagi 01-14/1751-sonli xati, shahar hokimining ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi O. Xotamovaning bildirgisi, xalq deputatlari shahar Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 10-oktabrdagi DKQ 03-03/101-26-sonli qarorini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddasiga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimining ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchi O.Xotamovaning Zarafshon shahar Bahor mahallasi hududidagi geografik obyektni nomlash to‘g‘risidagi hisoboti qoniqarli deb topilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2026-yil 16-sentabrdagi 05-19-10768-sonli ekspert xulosasi va yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Zarafshon shahar Bahor mahallasi hududida foydalanishga topshirilgan nomsiz ko‘cha “Shukrona” nomi bilan ilovaga muvofiq nomlansin.

Bunda ko‘chani nomlash bo‘yicha takliflar fuqarolar yig‘inida muhokama etilgandan so‘ng shahar komissiyasida ko‘rib chiqilganligi;

shaxslarning ismlari bilan, tarixiy voqealar sharafiga nomlash va qayta nomlash sohasida belgilangan cheklovlarga qat’iy rioya etilganligi inobatga olinsin.

4. Shahar ichki ishlar bo‘limi (S. Latipov) nomlangan ko‘chaga aholini ro‘yxatga qo‘yish va tegishli yo‘l belgilariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi shahar filiali (U. Ochilov) O‘zbekiston mahallalari uyushmasi shahar bo‘limi (R. Xudoyqulov), shahar hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi (A. Babayev) bilan birgalikda nom berilayotgan ko‘chaga belgilangan tartibda zamonaviy talablar asosida mahalla va ko‘chaning nomi yozilgan peshtaxta va ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatishni ta’minlasin.

6. Davlat kadastrlari palatasi shahar filiali (U. Ochilov) shahar statistika bo‘limi (D. Sobirova) bilan birgalikda yangi nomlangan geografik obyektni shahar xaritasiga joylashtirish, shuningdek, tegishlicha statistika ma’lumotlariga o‘zgartirishlar kiritish choralarini ko‘rsin.

7. Xalq deputatlari shahar Kengashining mazkur qarori va unga ilova qilingan ma’lumotlar qonunda belgilangan muddatda Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga Geografik obyekt nomlari davlat reyestriga kiritish uchun taqdim etilsin.

8. Shahar hokimligi axborot xizmati (J. Yorqulov), “Oltin vodiy” gazetasi tahririyati (Z. Ishkuvvatov)ga mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda ommaviy axborot vositalarida rasman e’lon qilish hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash shahar hokimining ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi O. Xotamova, ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha bo‘yicha doimiy komissiyasi D. Bahronova zimmasiga yuklansin.

10. Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **ERNAFASOV HUSNIDDIN BOLTAYEVICH**

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2026-yil 14-oktabrdagi
VII-37-123-5-78-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Zarafshon shahar Bahor mahallasi hududidagi nomsiz ko‘chaning nomlanishi

T/r	Geografik obyekt turi	Geografik obyektning joylashuvi (mahalla)	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	Bahor	nomsiz	Shukrona Oltinqanot Cho‘l gulshani	Takliflardan **Shukrona** nomi tavsiya etilgan. Ushbu nom Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan.